

## O'ZBEKISTONDA ICHKI TURIZM RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI VA IMKONIYATLARI

**Muxidinova Dilnoza Saidovna**

*Bux.DU, Iqtisodiyot va turizm fakulteti, magistranti d.s.muxidinova@buxdu.uz*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqola ichki turizmning turizmni rivojlantirishdagi o'рни va ahamiyati, O'zbekistonda ichki turizm rivojiga to'sqinlik qilayotgan bir qancha muammolar va ularni bartaraf etish yuzasidan tegishli taklif va mulohazalarga bag'ishlanib, unda Covid – 19 pandemiyasining salbiy oqibatlaridan keyin ichki turizmni tiklash bo'yicha dunyo mamlakatlari va O'zbekistonda qo'llanilgan chora-tadbirlar yuzasidan mulohazalar keltirilgan.*

**Kalit so'zlar:** *ichki turizm, xalqaro turizm, ziyorat turizmi, pandemiya, ichki turizm targ'iboti,*

### KIRISH

Ichki turizm – fuqarolarning ma'lum bir mamlakatda doimiy yashagan holda, o'sha mamlakat milliy chegarasi ichida, dam olish, dunyoni bilishga bo'lgan qiziqishlarini qondirish, sport mashg'ulotlari bilan shug'ullanish va boshqa turistik maqsadlarda vaqtinchalik sayohat qilishidir. Bu turizm turi davlatga valyuta olib kelmaydi. Ammo, hududlararo valyuta taqsimlanishiga ta'sir ko'rsatib, iqtisodiyotning rivojlanishiga turtki bo'ladi.

Covid-19 pandemiyasi davridan so'ng butun dunyo bo'ylab soyahat cheklovlari yumshatila boshlangach, ko'pgina davlatlar xalqaro turizmga qaraganda ichki turizmni rivojlantirish iqtisodiyotning tezroq tiklanishiga xizmat qiluvchi vosita sifatida qarashdi. Masalan, AQSh davlati 2021 – yilda ichki turizmni rivojlantirishga 868 million dollar , 2022 – yilda esa 920 million dollar sarfladi. Bunga monand ravishda, ichki sayohatchilar soni ham 2022 oktabriga nisbatan 39% ga ko'paydi.

UNWTO bergan ma'lumotlarga ko'ra, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotiga a'zo davlatlarda turizm xarajatlarining 75% ini ichki turizm tashkil qiladi. Yevropa ittifoqida esa ichki turizm xarajatlari kirish turizmiga qaraganda 1,8 barobar ko'proq. Umumiy qilib aytganda, eng katta ichki turizm bozoriga ega davlatlar, AQSHda bu xarajatlar 1 trillion dollar, Germaniyada 249 million dollar, Yaponiyada 201 million dollar, Angliyada 154 million dollar va Meksikada 139 million dollarni tashkil qiladi. [1]

№	Davlatlar	Ichki turistlar soni	Yil
1	Xitoy	3 246 000	2021
2	AQSH	2 020 000	2021
3	Buyuk Britaniya	1 776 080	2019
4	Indoneziya	603 020	2021
5	Ispaniya	341 053	2021

6	Yaponiya	268 208	2021
7	Malavi	258 329	2019
8	Fransiya	251 666	2021
9	Janubiy Koreya	245 127	2021
10	Avstraliya	242 543	2021

Manba: <https://www.unwto.org/tourism-data/global-and-regional-tourism-performance>

Adabiyotlar tahlili. Ushbu maqolada Butunjahon turizm tashkilotining “Ichki turizmni tushunish va uning imkoniyatlaridan foydalanish” nomli 2020-yil sentabridagi eslatmasi, shuningdek, Bernadette Samauning “ Ichki turizm: Samoa uchun foydalanilmagan imkoniyatlar (turarjoy providerlari uchun maxsus); Forbes Kabotening “Barqaror turizmni rivojlantirishga ichki turizmning hissi”;

Amine Mokhefi, Tarik Hamul va Bouzida Savsanning “ Ichki turizmni strategik boshqarish: Jazoir turizm sektori uchun birinchi muvaffaqiyatli qadam” nomli ilmiy tadqiqot materiallaridan foydalanildi.

.Qo'llanilgan metodlar. Maqolada turizmدا ichki turizmni rivojlantirish bo'yicha xorijiy davlatlarning ilg'or tajribalari o'rganildi. Shuningdek, tadqiqot davomida analiz, sintez, statistika va taqqoslash usullaridan foydalanildi.

Asosiy qism. Butunjahon Turizm tashkilotining(UNWTO) ma'lum qilishicha, Ichki turizm xalqaro turizmga qaraganda tezroq tiklanadi. Bu ham rivojlangan ham rivojlanayotgan davlatlar uchun Covid -19 pandemiyasining ijtimoiy va iqtisodiy ta'siridan xalos bo'lish imkonini beradi. UNWTO nashrlarida, ichki turizmni rivojlantirish maqsadida butun dunyo bo'ylab ishchilarga bonusli ta'tillar taklif qilayotgan, odamlarga o'z mamlakatlarida sayohat qilishlari uchun vaucherlar va boshqa imtiyozlar berishgacha bo'lgan faol tadbirlarlar o'tkazib borayotgan bir qancha davlatlar sanab o'tilgan.

Masalan, Tailand 5 million tun mehmonxonada yashash uchun 5 kechagacha odatdagi xona narxlarining 40% ida subsidiya berishga qaror qildi.

Italiyada, Bonus Vacanze muassasasi daromadi 40 ming yevrogacha bo'lgan oilalarda mamlakat bo'ylab sayohat qilishda tunab qolish xarajatlari uchun 500 yevrogacha mablag'lar taklif etdi.

Argentina esa argentinalik sayyohlarning batatafsil tavsifini ta'minlash uchun Ichki turizm observatoriyasini tashkil qilishni e'lon qildi.

Fransiya mamlakatning xilma-xil destinatsiyalariga bag'ishlangan “ Men bu yoz Fransiyaga boraman” kompaniyasini boshladi.

Kosta Rika bu mamlakatda istiqomat qiluvchilar uchun 2020 va 2021-yildagi barcha bayramlarni dushanba kuni ko'chirdi. Bundan maqsad esa ularning dam olish kunlarini uzaytirish orqali vaqtlarini ichki sayohatga sarflashlari va hududda ko'proq qolishlari uchun edi.

Malayziya sayohat uchun 113 million dollarlik chegirmali vaucherlar hamda 227 million dollarlik shaxsiy soliq imtiyozlarini taqdim qildi. [2]

Bugungi kunda O'zbekistonda ijtimoiy hayotning barcha sohalarida keng ko'lamli islohotlar olib borilmoqda. Bularning barchasi mamlakat iqtisodiyotini yanada rivojlantirishga va aholi farovonligini yanada oshirishga xizmat qiladi. Turizm ham O'zbekiston iqtisodiyotining rivojlanishi va o'sishida muhim o'rin tutadi. Turizmning boshqa sohalar qatori ichki turizmni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, Prezidentimiz tomonidan 2021-yil 9-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-6165-sonli Farmoni hamda 2022-yil 30-aprelda qabul qilingan "Ichki turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-232-sonli qarori bilan ichki turizmni oshirishga qaratilgan bir qancha chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Masalan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6165-sonli Farmoni bilan quyidagi imtiyoz va yengilliklar:

- turoperatorlar, turagentlar, shuningdek, joylashtirish vositalari uchun foyda solig'i stavkasini belgilangan stavkaga nisbatan 50 foizga kamaytirish;

- kamida 10 kishidan iborat xorijiy turistik guruhlar uchun O'zbekiston Respublikasida tur tashkil etish va ularning joylashtirish vositalarida kamida besh kecha tunab qolishi sharti bilan turoperatorlarning avia va temir yo'l chiptalari bo'yicha xarajatlarini chipta narxining 30 foizi miqdorida qisman subsidiyalash;

- turoperatorlar, turagentlar va turizm sohasida mehmonxona xizmatlari (joylashtirish xizmatlari) ko'rsatuvchi subyektlar bo'yicha:

- yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i va yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni to'lashdan ozod qilish;

- ular tomonidan to'lanadigan ijtimoiy soliqni kamaytirilgan stavkada 1 foiz miqdorida belgilash muddatlari 2021-yil 31-dekabr gacha qadar uzaytirildi.[3]

Shuningdek, Prezidentimizning PQ-232-sonli qarori bilan:

- mehnat jamoalarining jamoa shartnomalariga ish beruvchilar tomonidan xodimlar uchun yiliga bir marotaba mahalliy sayohatga chiqish imkoni yaratiladigan bo'ldi;

- sayohat xarajatlarining bir qismi ish beruvchilarning byudjetdan tashqari jamg'armalari mablag'lari va qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan qoplab beriladigan bo'ldi;

- 2022-yil 1-sentyabrdan boshlab O'zbekiston Respublikasi fuqarolari (mahalliy turistlar) uchun "O'zbekiston bo'ylab sayohat qil!" dasturi doirasida respublika hududlari bo'ylab ichki sayohatlarni amalga oshirish xarajatlarining bir qismini qaytarish – "Cashback" tartibi joriy etildi;

Har bir turistga sayohat xarajatlarini qaytarishda quyidagi miqdorlar qo'llaniladi:

- a) aviaqatnov orqali borib-kelish chiptasi narxining 15 foizi, lekin 150 ming so'mdan oshmagan miqdorda;

b) temir yo'lda yoki avtobusda borib-kelish chiptasi narxining 15 foizi, lekin 80 ming so'mdan oshmagan miqdorda;

d) joylashtirish vositasida tunab qolish xarajatining 15 foizi, lekin 80 ming so'mdan oshmagan miqdorda;

e) teatr, muzey, sirk va badiiy galereyalarga har bir tashrif chiptasi narxining 50 foizi, lekin 20 ming so'mdan oshmagan miqdorda.

“Cashback” tartibini joriy etish uchun respublika byudjetining qo'shimcha mablag'laridan 2023 yil 1 yanvardan boshlab jami 30 mlrd so'm, jumladan uning 1-bosqichi uchun 10 mlrd so'm ajratish mexanizmi joriy etildi.

Shu bilan birga ichki turizmni rivojlantirish uchun mas'ul tashkilotlar belgilandi va ushbu tashkilotlarga o'z yo'nalishlari bo'yicha har yili ish beruvchilar bilan birgalikda xodimlarni respublika bo'ylab sayohatga chiqishi uchun sayohat grafiklarini tasdiqlash hamda sayohatni amalga oshirish yuklatildi. Ya'ni,

\* yoshlar uchun – Yoshlar ishlari agentligi, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi;

\* mehnat va mahallalar jamoalari, faxriylar, nuroniylar va pensionerlar uchun – O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi hamda Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi;

\* xotin-qizlar uchun – Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi huzuridagi Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi, Tibbiy-ijtimoiy xizmatlarni rivojlantirish agentligi mas'ul qilib belgilandi.[4]

Yuqorida sanab o'tilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish natijasida:

- 150 ming nafar qo'shimcha sayohatlar amalga oshirilishi hamda 104,3 mlrd so'mlik turizm xizmatlari aylanmasi shakllantirilishi va buning hisobiga davlat byudjetiga qo'shimcha 15,5 mlrd so'm soliq tushumlari tushishi kabi iqtisodiy o'zgarishlarga olib kelgan;

- 2022-yil davomida “O'zbekiston bo'ylab sayohat qil” dasturi doirasida 11,435 mln. ta (2021-yilga nisbatan 1,9 barobar) ichki turistik sayyohatlar amalga oshirilgan. Jumladan, mehnat jamoalari sayohatlari 700,1 ming tani, ayollar daftariga kiritilgan xotin-qizlar sayohatlari 37,9 mingtani, notinch oilalar sayohatlari 1,4 mingtani, yoshlar hamda nuroniylar sayohati 588,3 mingtani hamda mahalliy aholi sayohatlari 10 mln 107,4 mingtani tashkil etgan;

- 2022-yil davomida 42,7 mingta transport xizmatlari amalga oshirilgan bo'lib, shundan: 6,4 mingta avia qatnovlar, 1,9 mingta temir yo'l qatnovlari, 34,3 mingta avtobus qatnovlarini tashkil etgan.

- 2022-yil 1-iyuldan boshlab “Turizm mahallasi”, “Turizm qishlog'i” yoki “Turizm ovuli” maqomi berilgan fuqarolar yig'inlari hududlarida mehmon uylari, ovqatlanish va savdo shaxobchalari, ko'ngilochar joylar tashkil etgan tadbirkorlar uchun 3 yil davomida aylanmadan olinadigan soliq va ijtimoiy soliq stavkasi 1 foiz miqdorida,

ushbu hududlardagi yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq va yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i miqdorlari – mazkur soliqlar bo'yicha hisoblangan summaning 1 foizi miqdorida belgilandi;[5]

- oilaviy mehmon uylarini ta'mirlashga 100 million so'mgacha, mebel, maishiy texnika va boshqa buyumlar bilan jihozlashga 50 million so'mgacha hamda suzish havzalarini tashkil etish loyihalarni moliyalashtirish uchun tadbirkorlarga 200 million so'mgacha kreditlar berish tartibi belgilandi. Ushbu loyihalarni amalga oshirish uchun Ipoteka dasturi doirasida iqtisod qilingan mablag'lar hisobidan 100 mlrd so'm, kichik tadbirkorlik uchun ajratilgan pul mablag'lari hisobidan 50 million dollar yo'naltirildi.

Ammo, yuqoridagi ishlar amalga oshirilishiga qaramasdan, nega yurtimizda ichki turizm ommalashmayapti yokida nega sust rivojlanyapti?

Karantin davrida chet ellik sayyohlar tashrifi kamayishi shubhasiz. Shunday holatda ichki turizm tiklanish mexanizmi sifatida qo'l keladi. Ammo ta'kidlash joizki, davlatimiz aholisining aksar qismida sayohat qilish ishtiyoqi yuqori emas. Bunga sabab, birinchidan o'zbek xalqining o'troqligi.

Ikkinchidan, biz o'zbek xalqining materializmga bog'lanib qolganimizdir. Bizningcha, o'zini hurmat qilgan insonning albatta mashinasi, uy-joyi bo'lishi kerak. Topgan pulini sayohatga sarflagandan ko'ra mashina yoki yana bitta kvartira olsam deymiz. Sayohatga esa ortiqcha xarajat deb qaraymiz. E'tibor bergan bo'lsak, aksariyat rivojlangan davlatlar fuqarolari ijarada yashashadi. Ularning uy sotib olishga qurbi yetadi, ammo ma'lum hududda uyga ega bo'lish o'sha joyga bog'lanib qolishga, materializmga sabab bo'ladi. [6]

Sayohat qilish odat bo'lmaganining asosiy sabablaridan yana biri - daromad va turmush darajasining pastligidir. Qachonki, qorin to'q, ust but va uy joy bo'lgandagina sayohat ko'ngilga sig'adi. Bunga qo'shimcha ravishda, ichki turistlarning mustaqil sayohat qilishlari uchun turistik marshrutni mustaqil belgilash imkonini beruvchi dasturiy ta'minot ham yo'q. Borlarida ham narxi arzon bo'lgan hostel yokida uy mehmonxonalari to'g'risida ma'lumotlar mavjud emas. Turoperatorlar taklif qiladigan xizmatlar esa juda qimmat.

Shuningdek, yer yuzida sayohatchilarning katta qismini pensionerlar tashkil qiladi. Pensiya tizimi to'g'ri yo'lga qo'yilgan mamlakatlarda ular hech bo'lmasa yiliga bir marta sayohat qilish haqida o'ylay olishadi. Bizdachi? Qariyalar oladigan pensiya yashash xarajatlaridan ortmaydi.

Beshinchidan, mamlakatimizda targ'ibot ishlari juda sust olib boriladi. Mamlakatimizda 8600 dan ziyod tarixiy obidalar joylashgan hududlar bor. Tog'li va cho'l hududlarimizda ham ko'rishga, bir marta tashrif buyurishga arzigulik joylar borligidan hammaning ham xabari yo'q. So'nggi yillarda, chet davlatlarda O'zbekistonning turistik salohiyati haqida mashhur nashrlarda faol targ'ibot olib borilyapti. Ammo, yurtimiz aholisi uchun esa bu haqida ma'lumot beruvchi nashrlar yo'q. Biz Antaliya, Maldiv orollari, Tailand haqida oz bo'lsada ma'lumotga egamiz,

yokida ijtimoiy tarmoqlarda yoki televizorda videolarni ko'rganmiz. Ammo, Boysun tog'lari, Shohimardon tabiati haqida-chi? O'zbekistonda dronlar ishlatish mumkin emas. Ijtimoiy tarmoqlarda biror turistik destinatsiya haqida yaxshi kontent ko'rsak, birortasi dronlarsiz su'ratga olinmagan. Shaxsan o'zim, Instagram tarmog'ida Polshada yashovchi bir suratkash yigitning faoliyatini kuzatib boraman. Shunchaki, u o'z faoliyatini reklama qilish uchun drondan foydalanadi. U olgan videolarida Polsha tabiatini shunchalik go'zal tasvirlaydiki, u joylarga borishni, o'z ko'zingiz bilan ko'rishni xohlaysiz.

O'zbekistonda ichki turizmning rivojlanmayotganligining yana bir sababi, infratuzilmaning yo'lga qo'yilmaganidir. Masalan, Amir Temur g'ori obyektlari yangi turistik marshrut, ammo unga olib boradigan yo'llar esa talabga javob bermaydi. Shuningdek, ko'pgina viloyatlardan to'gridan to'g'ri transport xizmatlari yo'lga qo'yilmagan. Ko'pchiligida Toshkent transit zona bo'lib xizmat qiladi. Masalan, Qoraqalpog'iston Respublikasini Farg'ona vodiysi viloyatlari bilan yokida Buxoro viloyatini Namangan bilan bevosita bog'laydigan avia, temiyo'l, avtobus qatnovlari yo'lga qo'yilmagan. Shuningdek, transport qatnovlarining aksariyati viloyatlarning turistik markazlari bilan emas, ma'muriy markazlariga yo'naltirilgan. Bu esa ichki sayohatchilar uchun asosan yo'lda ko'p vaqt sarflashga va ichki turizm xizmatlaridan to'laqonli foydalanishining cheklanishiga olib kelmoqda.

Xulosa va takliflar. Yuqorida sanab o'tilgan kamchilik va muammolarga quyidagilarni taklif qila olamiz:

- Ichki turizm targ'ibotini kuchaytirish. O'zbek, rus va qoraqaloq tillarida yurtimizning turistik slohiyatini namoyon qiladigan nashrlarni chop etish va ularni barcha urdagi faoliyat bilan shugu'ullanadigan subyektlarga bepul tarqatish. Ommaviy axborot vositalarida, yoshlarimiz ko'p foydalanadigan internet tarmoqlarida yurtimizdagi turistik manzillarning reklamasini ko'paytirish;

- Ommaviy tadbirlar, festivallar, ko'rgazma, shou, konsertlar sonini oshirish va ularning dasturi bilan mahalliy aholini maksimal darajada xabardor qilish;

- Mahalliy aholining erkin sayohat qilishi uchun viloyatlarni bevosita bog'layidigan aviaqatnovlar, poezd, avtobus, mikroavtobus va yengil avtomashinalar qatnovini yo'lga qo'yish;

- Malayziya davlati kabi ichki turizmni rag'batlantiruvchi turistik voucherlar taqdim qilish;

- Kichikroq reklama loyihalarini, startaplarni, yangi innovatsion biznes g'oyalarni birgalikda moliyalashtirish va ichki bozorda loyihalarni amalga oshirish;

- Ta'lim muassasalarida: maktab, texnikum, insitut va universitetlarda ta'lim oluvchilar o'rtasida chegirmali sayohatlarni tashkillashtirish;

- Ekoturizm sohasini rivojlantirish, hududlarni ekoturistik xizmatlar ko'rsatish ixtisoslashuvi bo'yicha guruhlash, bu soha bo'yicha axborot bazasini, huquqiy- me'yoriy hujjatlarni shakllantirish.

Xulosa o'rnida aytadigan bo'lsak, O'zbekistonda ichki turizmni rivojlantirish uchun birinchi navbatda, aholiga hududlarning turistik imkoniyatlari haqida tasavvur uyg'otish lozim. Umuman olganda, ichki turizm O'zbekiston uchun istiqbolli soha bo'lib, uning salohiyatiga to'liq erishish uchun rejalar va investitsiyalarni talab qiladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOT VA SAYTLAR:

1. <https://www.unwto.org/news/unwto-highlights-potential-of-domestic-tourism-to-help-drive-economic-recovery-in-destinations-worldwide>
2. UNWTO Highlights Potential of Domestic Tourism to Help Drive Economic Recovery in Destinations Worldwide. Madrid, Spain, 14 September 2020.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2021-yil 9-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6165-sonli Farmoni.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30-aprelda qabul qilingan "Ichki turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-232-sonli qarori.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 27-yanvardagi "Xizmatlar sohasini rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-104-son qarori.
6. <https://kun.uz/news/2020/06/25/ozbekistonda-ichki-turizm-nega-ommalashmagan-asosiy-sabab-mablagmi?q=%2Fuz%2Fnews%2F2020%2F06%2F25%2Fozbekistonda-ichki-turizm-nega-ommalashmagan-asosiy-sabab-mablagmi>
7. Understanding Domestic Tourism and Seizing its Opportunities. UNWTO briefing note – Tourism and COVID-19, ISSUE 3, september 2020